

## **NAMANGAN VILOYATI OLMA BOG‘LARIDA UCHRAYDIGAN ZAMBURUG‘LI KASALLIKLARI**

*Omadbek Anvarjoonov*  
*talaba*  
*Muqaddam Mirzaitova*  
*Ilmiy raxbar*  
Andijon qishloq xo‘jaligi va  
agrotexnologiyalar instituti

*Аннотастия.* Мақоллада о'симliklarni himoya qilish muammolari va iqlim o'zgarishining qishloq xo'jaligiga, ayniqsa mevachilikka ta'siri muhokama qilinadi. Namangan viloyati 2020-2023-yillarda mevali daraxtlar kasalliklari bo'yicha tadqiqotlar olib borilib, bu yerda qoraqo'tir, monilioz, chang chiriyotgan, saraton kabi xavfli kasalliklar aniqlandi. Ushbu kasalliklarning iqtisodiy yo'qotishlari va ularning hosildorlik va mahsulot sifatiga ta'siri qayd etilgan.

**Kalit so'zlar:** O'simliklarni himoya qilish, meva etishtirish, iqlim o'zgarishi, meva eksporti, qoraqo'tir. Monilioz. Farg'ona vodiysi, iqtisodiy yo'qotishlar

## **ГРИБКОВЫЕ ЗАБОЛЕВАНИЯ В ЯБЛОНЕВЫХ САДАХ НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ**

Омадбек Анваржунов  
Студент  
Мукаддам Мирзаитова  
Научный руководитель  
Андижанское управление сельского хозяйства  
и Институт агротехнологии

*Аннотатсия.* В статье рассматриваются проблемы защиты растений и влияние изменения климата на сельское хозяйство, особенно плодоводство. В 2020-2023 годах в Наманганском вилоята были проведены исследования болезней плодовых деревьев и выявлены такие опасные заболевания, как парша, монилиоз, мучнистая роса, рак. Учтены

*экономические потери от этих заболеваний и их влияние на производительность и качество продукции.*

***Ключевые слова:** Защита растений, производство фруктов, изменение климата, экспорт фруктов, парша. Монилиоз. Ферганская долина, экономические потери*

## **FUNGAL DISEASES IN APPLE ORCHARDS OF NAMANGAN REGION**

Omadbek Anvarjonov  
student

Muqaddam Mirzaitova  
Scientific supervisor  
Andijan Department of Agriculture and  
Institute of Agrotechnology

***Abstract.** The article discusses the problems of plant protection and the impact of climate change on agriculture, especially fruit growing. In 2020-2023, studies of fruit tree diseases were conducted in the Namangan Valley and such dangerous diseases as scab, moniliosis, powdery mildew, and cancer were identified. Economic losses from these diseases and their impact on productivity and product quality are taken into account.*

***Keywords:** Plant protection, fruit production, climate change, fruit export, scab. Moniliosis. Fergana Valley, economic losses*

O‘zbekiston aholisining barqaror ko‘payib borishi oziq-ovqat mahsulotlarini doimiy ravishda ko‘paytirib borishni taqazo etadi.

Shu sababli, hukumatimiz qarorlarida mevali bog‘ ekin maydonlarini ko‘paytirish va ularning hosildorligini oshirishga alohida e‘tibor qaratish lozimligi ta’kidlanadi. Bu boradagi asosiy vazifalardan biri mevali bog‘larni kasalliklardan himoya qilishdir. Inson hayoti uchun juda katta ahamiyatga ega bo‘lgan mevalar, shu jumladan, olma, nok, behi, o‘rik, gilos, shaftoli va olxo‘ri mahsulotlari oziq-ovqat ratsionida asosiy o‘rin tutadi. Mevali bog‘larni bir necha xil kasalliklari ma’lum bo‘lib, ularga qarshi samarali kurashish bog‘lardan yuqori hosil olishning

asosiy omillaridan biridir. Buning uchun kasallik ko‘zg‘atuvchi mikroorganizmlar haqida yaxshi ma’lumotga ega bo‘lish talab etiladi. Kurash tadbirlarini kasallik qo‘zg‘atuvchilarning eng zaif davrida qo‘llash o‘ta muhimdir.

Ushbu holat bizning Respublikamizni ham chetlab o‘tmaganligini o‘simliklarda kasallik qo‘zg‘atuvchi mikroorganizmlarning evolyusion o‘zgarishi ko‘plab kasalliklarini paydo bo‘lishiga olib kelganligida ham kuzatsa bo‘ladi. Olma daraxtlarida uchraydigan o‘ta xavfli monilioz, parsha va un-shudring kasalliklari shular jumlasidandir. Demak, bu bog‘larda zararli organizmlar bilan zararlanish va ularni tarqalish darajasi borligi o‘z dolzarbligi yo‘qotmagan. Bu holat nafaqat hosilning vaznini kamaytiradi, balki uning sifatiga ham salbiy ta’sir qiladi.

Deyarli barcha mevali daraxtlar zaiflashib, kasalliklarga chalinuvchanligi ortdi, ayniqsa mikozi zarur keltirib kelmoqda.

Farg‘ona vodiysi viloyatlarida mevali bog‘larda uchraydigan kasalliklarni aniqlash maqsadida 2020-2023 Namangan viloyati, Chortok tumani “Otabek-Odina Jamshid bog‘i” (11,5 ga) f/x, Yangiqo‘rg‘on tumani Doli Zamirabonu Azizbek Sobirjon bog‘dochilik xo‘jaligi, (goldon 12 ga) Iskafan agrofirma xududi Sulton Maxmudjon Boburjon yo‘nalishli kuzatuvlar olib borildi.

#### 4.4-jadval

**Olmaning parsha kasalligiga qarshi qo‘llanilgan fungitsidlarning biologik samaradorligi. Namangan viloyati, Chortoq tumani, “Otabek-Odina Jamshid bog‘i” f/x (Gala navi). 2021 y.**

№	Препаратлар	Сарф меъёри кг,л/га	Ўсимлик аъзолари	Зарарланиш, %	Касаллик ривож, %	Биологик самарадорлик, %
1	назорат - (кимёвий ишлов берилмаган)	-	барг	49,0	10,0	-
			мева	38,0	8,7	-
2	Беллис 380 г/кг с.д.г. (Боскалид + пираклостробин) (андоза)	0,8	барг	18,0	2,2	78,0
			мева	14,2	2,0	77,0

3	Chevita 30% сус.к (Пириметанил )	0,4	барг	25,0	3,8	62,0
			мева	22,4	2,7	69,0
		0,5	барг	14,0	2,2	78,0
			мева	8,0	1,9	78,2
		0,6	барг	11,2	1,7	83,0
			мева	7,5	1,6	84,0
4	Мансoblue 80% w.p. (н.кук.) (Манкоцеб)	2,0	барг	25,0	2,7	73,0
			мева	21,0	2,1	75,9
		2,5	барг	12,0	1,4	86,0
			мева	10,0	1,2	86,2
		3,0	барг	9,4	1,3	87,0
			мева	10,0	1,2	86,2
5	Стронгер ТМ 50% (500 г/кг) с.д.г.70% с.д.г. (Крезоксим-метил)	0,2	барг	30,0	3,8	62,0
			мева	26,0	2,9	66,7
		0,25	барг	18,2	2,7	73,0
			мева	13,0	2,5	71,3
		0,3	барг	15,0	1,9	81,0
			мева	9,5	1,8	79,3
6	Тиофанат 70% н.кук. (Дифеноконазол)	0,8	барг	18,0	2,4	76,0
			мева	14,0	1,9	78,2
		1,0	барг	8,8	0,9	91,0
			мева	6,0	0,5	94,2
		1,2	барг	4,7	0,4	96,0
			мева	4,0	0,3	96,5
7	Ридомил ПРО 70% н.кук. (Манкоцеб + металаксил М) (Манкоцеб + металаксил М)	2,0	барг	18,0	2,4	76,0
			мева	14,0	1,9	78,2
		2,5	барг	9,0	0,7	93,0
			мева	6,0	0,5	94,2
		3,0	барг	7,0	0,5	95,0
			мева	5,0	0,4	95,4

ЭКФ<sub>0,5</sub>

3,7

Parsha kasalligiga qarshi sinovdan o'tkazilgan fungitsidlardan Mancoblue 80% n.kuk. (2,5-3,0 kg/ga), Tiofanat 70% n.kuk. (1,0-1,2 kg/ga), Ridomil PRO 70% n.kuk. (Mankotseb + metalaksil M) (2,5-3,0 kg/ga) qo'llanilgan variantlarda eng yuqori natijalar olindi. Biologik samaradorlik 86,0 % dan 96,0% gacha yetdi. Zararlanish 4,0% dan 25,0% gachani, kasallikning rivojlanishi esa 0,3 % dan 2,7% gachani tashkil etdi.

Chevita 30 % cus.k (0,4-0,6 l/ga) va Stronger TM 50% s.d.g. (0,2-0,3 kg/ga) fungitsidlari qo'llanilgan variantlarda kasallikka qarshi yuqori samara olinmadi. Biologik samaradorlik 85,0% dan kam bo'ldi. Zararlanish 24,4% gacha, kasallikning rivojlanishi 3,7% gacha yetdi.

Xulosa qilib aytganda, olmaning parsha kasalligiga qarshi sinovdan o'tkazilgan fungitsidlardan Mancoblue 80% n.kuk. (2,5-3,0 kg/ga), Tiofanat 70% n.kuk. (1,0-1,2 kg/ga), Ridomil PRO 70% n.kuk. (Mankotseb + metalaksil M) (2,5-3,0 kg/ga) fungitsidlari bilan kimyoviy ishlov berilganda eng yuqori biologik samaradorlikga (86,0-96,0%) erishildi.

Tadqiqotlar davomida mevali bog'larda un-shudring, monilioz, kalmaraz, qora rak, dog'lanish kasalliklari uchrashi qayd etildi.

Tadqiqotlar davomida fermer xo'jaliklari olma bog'larida yetishtirilayotgan olmaning Janatan, Red simerenko, Golden delishes, Xoji ona, Kindevit va Besh yulduz navlari parsha (kalmaraz) kasalligi bilan 24,0% dan 70,0% gacha, un shudring kasalligi bilan 16,0% dan 45,0% gacha, monilioz kasalligi bilan 11,0% dan 34,0% gacha, qora rak kasalligi bilan 5,0% gacha va bakterial rak kasalligi bilan 8,0% dan 12,0% gacha zararlanganligi aniqlandi. Kasalliklarning rivojlanishi 1,5% dan 26,5% gachani tashkil etdi.

Kuzatuv natijalariga ko'ra, so'ngi yillarda olma bog'larida eng xavfli kasallik parsha va monilioz kasalliklari keng tarqalib mevachilik sohasiga katta iqtisodiy zarar yetkazmoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.**

1. Avazov. S.E., Nuraliev X.X., Xolmuradov E.A., Xasanov S.S. "O'simliklarning yuqumli kasalliklarini aniqlash va ularga qarshi kurash vositalari" O'quv qo'llanma. Toshkent – 2022. 411 b.
2. Naumov N.A. Методы микологических и фитопатологических исследований. – L.: Selxozgiz, 1937. – 272 s.
3. Fedorova R.N. Parsha yabloni. – L: Kolos, Leningr. Otd-nie, 1977, 64 s.
4. Chumakov A.Ye., Minkevich I.I., Vlasov Yu.I., Gavrilova Ye.A. Основные методы фитопатологических исследований // Научные труды VASXNIL.
5. <https://lex.uz/docs/4641164>
6. [https://yeast-fruit.com/uz/tag\\_uz/yabloko-uz](https://yeast-fruit.com/uz/tag_uz/yabloko-uz).